

BANK KREDITLARINI BERISH ORQALI AHOI BANDLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

Ochilov Muhridin Toshpulat o'g'li

Bank moliya akaedemiyasi magistranti

och_bfa@mail.ru

Anatatsiya Ushbu maqolada bank kreditlarini berish orqali aholi bandligini ta'minlash yo'llari orqali kambag'allikni qisqartirish, barcha viloyatlarda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amaliy ishlarni tashkil qilish maqsad qilib olingan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, xizmatlar, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, konsepsiya. aholi bandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlik, ishsizlik, bank, aholi.

Аннотация Целью данной статьи является снижение уровня бедности путем обеспечения занятости населения посредством предоставления банковских кредитов, а также организация практической работы по снижению уровня бедности во всех регионах.

Ключевые слова: бедность, услуги, организационно-экономический механизм, концепция. занятость, семейное предпринимательство, безработица, банковское дело, население.

Abstract This article aims to reduce poverty by providing employment to the population through the provision of bank loans, and to organize practical work on reducing poverty in all regions.

Keywords: poverty, services, organizational and economic mechanism, concept. ensuring employment of the population, family entrepreneurship, unemployment, bank, population.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-29-son Farmoniga muvofiq. Kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud aniq uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo'lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma'lum tamoyillar asosida olib boriladi. Bu tamoyillar kredit munosabatlari rivojlanishining birinchi

bosqichida ko'zga tashlangan edi, keyinchalik esa ular umumdavlat va xalqaro kredit qonunchiligida yaqqol o'z aksini topdi. Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit qaytib berishlik, kreditning muddatligi, kreditning ta'minlanganligi, maqsadligi va to'lovligi kabi bir necha tamoyillarga ega. Biz ko'rib o'tmoqchi bo'lgan tamoyil kreditning ta'minlanganligidir. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik kodeksi", "Ipoteka to'g'risida"gi va "Garov to'g'risida"gi qonunlari kredit ta'minlanganligining huquqiy asoslari hisoblanadi. Bu tamoyil yordamida kreditning iqtisodiyotni rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlik ta'minlanadi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo'jalik aylanishida ishtirok etuvchi bank mablag'larining har bir so'miga muayyan miqdorda moddiy boyliklar qarama-qarshi turishi kerak. Banklar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga berilgan har qanday kreditlar to'liq tovar-moddiy boyliklari bilan yoki ma'lum xarajatlar, xizmatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmasligiga asos bo'ladi. Bu o'z navbatida bankning likvidligiga va pul muomalasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy-boyliklari va xarajatlar, xizmatlar bilan ta'minlangan bo'lishiga alohida e'tibor berilmoqda. Aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun "turmush darajasi", "xalq farovonligi", "turmush faoliyati xavfsizligi", "turmush tarzi", "mehnat faoliyati sifati", "turmush sifati" kabi turli xil tushunchalar qo'llaniladi. Ba'zan turli atamalar bir mazmunni anglatadi, boshqa hollarda ular o'rtasidagi farq muayyan xarakter kasb etadi, mazmuni sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, mazkur tushunchalarning o'zaro bog'liqligini qayd etish lozim.

O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlari qondirilish darajasini ifodalaydigan "turmush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Bunday tavsif ko'proq turmush darajasi statistikasini xarakterlaydi. Shu bilan birga turmush darajasi ko'plab omillar yig'indisi ta'sirida bo'lgan o'zgaruvchan jarayondir. Turmush darajasi muntazam o'zgarib turadigan turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi. Aholi real daromadlarining oshishida asosiy omil bo'lib makroiqtisodiy sharoitning qulayligi,

iqtisodiy o'sishning tez sur'atlarda oshishi, inflyatsiyaning sezilarli darajada pasaygani, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchaygani hisoblanadi. So'nggi yillarda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirish, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshdi, uning xarid qobiliyati barqaror sur'atda o'sib bormokda.

Kreditlashni tashkil etish kredit munosabatlarining ikki subyekti - bank va qarz oluvchining o'zaro majburiyatlari hamda manfaatlarini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Kreditor sifatida banklarning olib boradigan faoliyati ular uchun me'yoriy bo'lgan hujjat kredit siyosatida o'z aksini topadi. Tijorat banklari kredit siyosatini mustaqil tuzadilar. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda o'z kredit siyosatini shakllantirishi, bankning kreditlash faoliyati va kreditlarni boshqarishning asosi hisoblanadi.

Bugungi kunda aholining ish bilan bandligini ta'minlash muammosi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim makroiqtisodiy xususiyatlaridan biri bo'lib iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "aholi bandligini oshirish maqsadida aholining real pul daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va daromadlar bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish" asosiy vazifa sifatida belgilangan Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar jarayonida aholi bandligini ta'minlas muammolarini tadqiq etishning dolzarbligi birinchi navbatda, mazkur tushunchaning evolyutsion qarashlari va konseptual yondashuvlarini tadqiq qilishni taqozo qiladi. Mazkur tushunchaning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari mazmuni turlituman shakllar vositasida ifodalanadi

Kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha qanday vazifalarni qilish kerak bo'ladi. Xususan, 2023-yilda yana 1 mln aholini kambag'allikdan

chiqarish vazifasi qo'yildi va tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish uchun kredit miqdori oshiriladi, 2 mln doimiy ish o'rinlari yaratiladi. Xususan, 2023-yilda 5 mln nafar aholi bandligini ta'minlash, 2 mln doimiy ish o'rinlarini yaratish zarurligi qayd etildi.

Andijon viloyati joriy yilda quyidagicha ish o'rinlari yaratishni reja qilgan:

- investitsiya loyihalari hisobiga 40 mingta;
- paxta va g'alladan bo'shagan yerlarni aholiga bo'lib berish hisobiga 75 mingta;
- mavsumiy ishlar orqali 200 mingta;
- mahallalarda mikromarkazlar tashkil etish, sanoat zonalarida ishlab chiqarishni kengaytirish va markaziy ko'chalarni xizmatlarga ixtisoslashtirish, savdo-servis obyektlarini barpo etish hisobidan 135 mingta;

- oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida ajratiladigan kreditlar hisobidan 20 mingta.

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida quyidagi ishlar belgilangan:

- kartoshkachilikni yo'lga qo'yish orqali 10 ming;
- bog'larning sug'orish tizimini tiklash hisobiga 2 ming;
- Ko'kdalada tarvuz ekishni yo'lga qo'yish orqali 32 ming;
- Mirishkorda dala chetlariga tut ektirish hisobiga pillachilikda qo'shimcha 6 ming aholini daromadli qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha [yig'ilishi o'tkazildi](#) va yeg'ilishda ko'pgina masalar hal etildi va kamchiliklar etib o'tildi. Navoiy, Buxoro, Namangan, Qo'qon, Ohangaron va Chirchiq shaharlari, Zafarobod, Arnasoy, Vobkent, Shofirkon, Kogon, G'ijduvon, Romitan tumanlarining bandlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha rejalari puxta ishlab chiqilmagani, ularda mavjud barcha imkoniyat va zaxiralar hisobga olinmagan. Shu bilan birga, kambag'allik ko'rsatkichlari respublika bo'yicha yaxshilangan bir paytda, Navoiy, Surxondaryo va Farg'onada o'zgarish sezilmayotgani ta'kidlandi. kambag'allikni qisqartirishning eng asosiy mexanizmi — aholini daromadli ish bilan ta'minlash ekanini qayd etdi. Oilaviy tadbirkorlik dasturiga 12 trln so'm beriladi 2023- yilda tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish uchun kredit miqdori amaldagi 225 mln so'mdan 300 mln so'mgacha, Dehqon

xo'jaliklariga garovsiz kredit miqdori 50 mln so'mgacha oshiriladi (amalda 33 mln so'm). Avval oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kredit olib, yaxshi natija ko'rsatgan tadbirkorlar ushbu dasturlar doirasida yana imtiyozli kreditlar olishi mumkin bo'ladi.


Joriy yilda oilaviy tadbirkorlik dasturiga 12 trln so'm beriladi, oilaviy tadbirkorlikka qo'shimcha \$300 mln ajratiladi. Sharoiti og'ir mahallalardan 50 ming aholining bandligi ta'minlanadi, 5 trln so'mni avvalo eng og'ir mahallalarda kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirish bo'yicha dastur ishlab chiqish topshirildi. \$135 mln.lik kredit liniyasi bo'yicha og'ir mahallalar kesimida tadbirkorlik loyihalari paketini shakllantirib, ushbu mahallalarda kamida 50 ming aholini band qilish vazifasi qo'yildi. Bo'sh qolgan yerlarda eksportbop-bozorbop mahsulotlar yetishtiriladi. Qayd etilishicha, ikki yil ichida aholiga beriladigan yerlar 200 ming gektardan oshadi. Shuningdek, har bir tuman agrologistika markazlari va eksportyorlar bilan shartnomalar tuzilishi ta'minlanadi. Bu yerlardan samarali foydalanib, kamida \$1 mlrd.lik mahsulot ishlab chiqarish zarurligi ko'rsatib o'tildi. "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" yagona tizimga birlashtiriladi. Yangi tizimga ko'ra, tumanlar alohida toifalarga ajratildi. i. Bunda, birinchi bosqichda "temir daftar", "yoshlar daftari" va "ayollar daftari" yagona tizimga birlashtirilib, har bir oilaning yagona raqamli pasporti ishlab chiqiladi. Ikkinchi bosqichda har bir oilani kambag'allikdan chiqarish bo'yicha individual dasturlar tuziladi hamda uchinchi bosqichda oila uchun kasb-hunarga o'qitish, tadbirkorlik loyihasi amalga oshiriladi. Tadbirkorlik faoliyati past tumanlar uchun tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi ishlab chiqiladi. Tadbirkorlar sonini ko'paytirish bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish zarurligini kerak masalan, o'tgan yili Buxoroda — 8 ta, Namangan, Surxondaryo va Sirdaryoda — 2 tadan, Toshkent viloyatida — 1 ta tumanda yangi tashkil etilgan tadbirkorlar soni 2021-yilga nisbatan 30–40%ga kamaygan. Eng og'ir ahvol Andijon, Termiz va Kogon shaharlari, Jalaquduq, Marhamat, Olot, Qorako'l, Shofirkon, Mingbuloq va Qibray tumanlarida ekanini qayd etib, prezident ushbu hududlar hokimlarining bu boradagi faoliyati qoniqarsizligini ko'rsatib o'tdi. 2023-yilda yana 1 mln aholi kambag'allikdan chiqariladi. Mahalladagi ishsiz aholini daromadli qilish maqsadida 1 mingta mahallaga xizmat ko'rsatuvchi 300 ta mikromarkaz tashkil etish dasturi boshlangan Joriy yilda G'ijduvon, Buloqboshi, Zangiota, Farg'ona tumanlari, Qo'qon, Marg'ilon, Urganch shaharlarida kamida 20 tadan shunday markazlarni tashkil

qilish topshirildi. 2023-yilda yana 1 mln aholini kambag‘allikdan chiqarish vazifasi qo‘yildi.

Aholining o‘tib borayotgan to‘lov qobiliyati bilan mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan iste‘mol tovarlari hajmi o‘rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta‘minlash, bunday mahsulotlar turini kengaytirish, bozorlarimizni ular bilan ishonchli tarzda to‘ldirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aholining turmush farovonligi ko‘p jihatdan uning oziqovqat mahsulotlari bilan ta‘minlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur masalani hal etishda ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish, dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatidan yanada samarali foydalanish zarur bo‘ladi.

1 diagramma

Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo‘lganlar soni



Manba stat.uz ma‘lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzildi.

Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish jarayoni aholi hayot faoliyati uchun sharoitlar yaratadi. Bu sharoitlar «turmush sifati» tushunchasi bilan tavsiflanadi. Turmush sifati ko‘plab omillar ta‘sirida shakllanadi. Aholi turmush darajasini yaxshilash va ularga qulayliklar yaratish jarayonida xonadonlarni gazlashtirish va aholi uchun yetkazib beriladigan tabiiy gaz narxini belgilash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz aholisiga tabiiy gaz qo‘shni davlatlarga nisbatan arzon narxlarda yetkazib

beriladi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o‘rin egallaydi. Bugungi kunda biz bu sohani rivojlantirmasdan turib iqtisodiyotimizning kelajagini ta‘minlay olmaymiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirishda, aholini ish bilan ta‘minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda eng asosiy omillardan biri hisoblanib, jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo‘lgan mulkdorlar sinfining, ya‘ni o‘rta sinfning shakllanishi va mustaxkamlanishini ta‘minlaydi. Shuningdek, bu soha hozirda jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barkarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yo‘lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda. Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta‘minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta‘minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish, solik tushumlari hajmining o‘shishini ta‘minlash, aholi daromadlari darajasini barkarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018-yil 21-fevraldagi 6/1-son qaroriga “Aholi bandligini ta‘minlash uchun tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi” **nizomda**. Mikrokreditlar qaytarishlik, to‘lovlilik, ta‘minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi. Mikrokreditlar birinchi navbatda, hududlarda aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, muayyan mehnat turlari bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan aholini tadbirkorlik faoliyati orqali bandlik bilan ta‘minlash uchun imtiyozli shartlar asosida beriladi. Mikrokreditlar banklar tomonidan qarz oluvchilarga eng kam ish haqining 100 baravari miqdorigacha yillik 7 foiz stavkada ajratiladi. Banklar o‘z ichki kredit siyosatiga asosan respublikamizning alohida hududlarida istiqomat qiluvchi qarz oluvchilarga mazkur Nizomda belgilangan foiz stavkasidan kamaytirilgan foiz stavkalarda mikrokreditlar ajratishi mumkin deb belgilangan. Hamkorkbank ATB (2025) tomonidan olayn kreditlar

berilmoqda. Onliyne kreditlar berish tartibi quyidagi bosqichlardan iborat 1 rasmda keltrilgan.

1 rasm

Imtiyozli kreditlar bosqichlari

Imtiyozli kredit ajratiladigan sohalar quyidagilardir:

- oilaviy tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan aholi hamda tadbirkorlik subyektlariga — 3 oydan 6 oygacha bo‘lgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga;



- chorvachilik (qoramol, qo‘y, echki), baliqchilik va parrandachilik (tuxum yo‘nalishi) uchun — 1 yilgacha imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga;
- bog‘dorchilik, uzumchilik va limonchilikni tashkil etish, issiqxona, qishloq xo‘jaligi texnikasi va asbob-uskunalarni xarid qilish uchun — 3 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga;

Xo‘jalik subyekti kredit olish uchun tahliliy va xomcho‘t ma'lumotlardan kelib

chiqqan holda kredit olish uchun iltimosnomani tuzadi. Kredit olish uchun arizada kredit olish zaruriyati, uning samaradorligi, qaytarilishi, to'lovligi va ta'minlanishi, shuningdek, o'z kapitali tarkibi va uning kreditlanayotgan tadbirdagi ishtiroki batafsil bayon qilinadi. Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

1. Pul oqimi tahlili ko'rsatilgan biznes-reja.
2. Oxirgi hisobot davri uchun buxgalterlik balansi, debitorlik va kreditorlik qarzlari va to'lov muddati 60 kundan oshgan qarzlarni qiyoslash dalolatnomalari talqini.
3. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot.
4. Aylanma mablag'larning aylanishi hisob-kitobi.
5. Boshqa kreditlar, qarz mablag'lari mavjudligi va boshqa banklarda saqlanadigan bo'sh mablag'larning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnoma.
6. Kapitali bilan ishtirok etganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma.

Kredit xodimi yoki kredit paketini o'rganuvchi shaxs yuqorida qayd etilgan hujjatlarni olgach, uch kunlik muddatda quyidagilarni aniqlaydi: - subyektlarning kreditga va to'lovga qobiliyati, uning reyting bahosini, shuningdek, kredit maqsadlarining ustav faoliyatiga muvofiqligi, kreditning turini aniqlaydi, bunda u majburiy tartibda likvidlik, qoplash, muxtoriyat, qarz mablag'larini jalb qilish, foyda va aylanma mablag'lari aylanishi koeffitsiyentlarini o'rganib chiqishi lozim. Kredit paketini tahlil qilishda nafaqat kredit bitimlarining turli sohalariga, balki rahbarning shaxsiy sifatlariga ham baho beriladi. Taqdim etilgan hujjatlarni batafsil o'rganib chiqqach, bank xodimi kredit bitimini tuzish uchun xulosani rasmiylashtiradi. Bunda quyidagilar ko'rsatiladi:

- kreditning maqsadi, muddati va miqdori;
- kredit qaytarilishining ta'minlanishi;
- foiz miqdori v.b.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-29-son Farmoniga

3. . O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018-yil 21-fevraldagi 6/1-son [qaroriga](#) “Aholi bandligini ta’minlash uchun tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi” **nizomda**

4. Kun.uz

4.Daryo.uz

5. Hamkorbank uz .

6. Yodgorov M. Qurbonov R (2019) Bank auditi darslik.

7. Ochilov Muhridin Toshpulat o‘g‘li Bank kreditlarini berish orqali aholi bandligini ta’minlash yo‘llari (“hamkorbank” atb misolida) magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya 2025 yil 29-36 bet.

8..<https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1649288> (2024)

9 [O‘zbekistonda muammoli kreditlar ulushi rekord darajada o‘sdi](#) (2024)— [Daryo Yangiliklari](#)

[10.Muammoli kredit \(NPL\)](#) (2024)